

# JOPAPS




## JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

*Volume I, Issue 6*

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ



ISSN: 2181-4066  
DOI Journal 10.56017/2181-4066

**ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК  
ТАДҚИҚОТЛАР**  
**I-ЖИЛД, 6-СОН**

**ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ  
ИССЛЕДОВАНИЙ**  
**ТОМ-I, НОМЕР-6**

**PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES  
VOLUME-I, ISSUE-6**

**ТОШКЕНТ - 2023**

# ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES  
№ 6 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2023-6>

## Бош мұхаррир:

Нишонова З. – психология фанлари доктори, профессор

## Масъул мұхаррир:

Давлатов О. Ф. – педагогика фанлари бүйіча фалсафа доктори

## Таҳририят аъзолари:

Абдужаббарова М. – педагогика фанлари номзоди, доцент  
Абдураҳимов Қ. – психология фанлари бүйіча фалсафа доктори  
Акмалов А. – педагогика фанлари номзоди, доценти  
Акрамова Ш. – педагогика фанлари доктори, профессор  
Алиев М. – педагогика фанлари бүйіча фалсафа доктори  
Джураев Д. – педагогика фанлари доктори  
Душанов Р. – психология фанлари номзоди, доценти  
Негматовна Г. – педагогика фанлари номзоди, доцент  
Разакова Р. – психология фанлари бүйіча фалсафа доктори  
Тожибоева Г. – психология фанлари бүйіча фалсафа доктори  
Тожибоева Г. – психология фанлари бүйіча фалсафа доктори  
Тұйчиева С. – психология фанлари номзоди, доцент

Мазкур фанларапо илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-үй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

# ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

*Педагогика фанлари*

**SOLIYEV Farhodjon**

*Farg'ona davlat universiteti  
“Psixologiya kafedrası” katta o‘qituvchisi*

**AKBAROVA Nigora**

*Farg'ona shahar imkoniyati cheklanganlar maktabi  
o‘qituvchisi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8062796>*

## TURLI KASB EGALARINING TASHQI SEMANTIK BELGILAR ASOSIDA O‘ZGA SHAXSNI VIZUAL BAHOLASH XUSUSIYATLARI

### ANNOTATSIYA

Maqolada turli kasb egalarining “tashqi ko‘rinish ifodalari” asosida o‘zga shaxsnini vizual baholash o‘rtasidagi farqlar, ya’ni jins, yashash hududi va kasbiy faoliyati bo‘yicha tafovutlar mavjudligi borasida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, suhbatdoshni aniqlashga sarflanadigan vaqt, ekspressiv xulqni qayd etish va kodlashtirishda e’tibor berilishi lozim bo‘lgan komponentlar, “Tana xaritasi”, shaxsning ijtimoiy munosabatlarda egallashi mumkin bo‘lgan proksemikasining milliy mentalitetga xos bo‘lgan xususiyatlari yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** vizual psixodiagnostika, jinsiy differensiya, vizual belgilar, ekspressiv xulq, analog signallar, “muloqotning milliy vizual matni”, proksemika, muloqot darajalari.

**СОЛИЕВ Фарходжон**

*Ферганский государственный университет  
Старший преподаватель кафедры психологии*

**АКБАРОВА Нигора**

*Ферганская городская школа инвалидов  
учитель*

## НА ОСНОВЕ ВНЕШНИХ СМЫСЛОВЫХ ПРИЗНАКОВ ЛЮДЕЙ РАЗНЫХ ПРОФЕССИЙ ОСОБЕННОСТИ ВИЗУАЛЬНОЙ ОЦЕНКИ ДРУГОГО ЧЕЛОВЕКА

### АННОТАЦИЯ

В статье приводятся данные о различиях между визуальной оценкой чужой личности на основе “выражений внешности” людей разных профессий, то есть о наличии различий по полу, территории проживания и профессиональной деятельности. Также освещаются время, затрачиваемое на идентификацию собеседника, компоненты, на которые следует обратить внимание при записи и кодировании экспрессивного поведения, “карта тела”, характерные для национального менталитета особенности проксемики, которую человек может приобретать в социальных отношениях.

**Ключевые слова:** визуальная психоdiagностика, половая дифференциация, визуальные сигналы, выразительное поведение, аналоговые сигналы, “Национальный визуальный текст общения”, проксемика, уровни общения.

**SOLIYEV Farhodzhan**  
*Fergana State University*  
*Senior Lecturer "Department of psychology"*

**AKBAROVA Nigora**  
*Fergana City School for the disabled teacher*

## **BASED ON EXTERNAL SEMANTIC CHARACTERS OF DIFFERENT PROFESSIONS FEATURES OF VISUAL ASSESSMENT OF A DIFFERENT PERSONALITY**

### **ANNOTATION**

The article provides information on the differences between the visual assessment of another person on the basis of “expressions of appearance” of different professions, namely, the presence of differences in gender, territory of residence and professional activity. Also, the time spent on identifying the interlocutor, the components that should be paid attention to when recording and codifying expressive behavior, the “body map”, the characteristics of the person's proxemia, which can occupy in social relations, characteristic of the national mentality are highlighted.

**Keywords:** visual psychodiagnostics, sexual differentiation, visual signs, expressive behavior, analog signals, “National visual text of communication”, proxemics, levels of communication.

Milliy ekspressiv xulq bir millatni boshqa bir millat vakilidan ajratib turishga ko'maklashuvchi vosita sifatida o'ziga xos milliy obraz tasavvurlarini shakllanishiga olib keladi. Ushbu obraz ma'lum bir guruh vakillarining mimik, pantomimik, tana xolati, tanani boshqarish harakatlari, nutq uslubi, kiyinish imidjining umumiy belgilari asosida xosil qilinadi.

Har qaysi millatning o'ziga xos xulq modeli mavjud va u ekspressiya darajalari, noverbal nutq belgilaringin namoyon bo'lishi, muloqotda egallagan xududi va xolatiga nisbatan farq qilib turadi. Ushbu belgilarga va xususiyatlarga tayangan holda boshqa millat vakillari orasidan o'zbeklarga xos ekspressiv xulqnini ajratib olish mumkin. Shunday qilib, noverbal muloqotning bir necha vositalarini tahlil qilish orqali ko'p tuzilmali o'zbek millatining analog belgilaringin o'ziga xos tomonlarini asoslashga harakat qilamiz [1, B.34].

Turli kasb egalari o'rtasida shaxs psixotipini vizual aniqlashga, kasb faoliyatining tashqi semantik belgilari asosida tahlil qila olish qobiliyatiga ta'sirini o'rganish hamda milliy ekspressiv xulqnini tahlil qilish maqsadida odamlar va odamlar guruhlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonida yuzaga keladigan va asosan vizual analizatorlar yordamida idrok etiladigan "tashqi ko'rinish ifodalarini"ning vizual belgilarini aniqlashga mo'jallangan ijtimoiy psixologik so'rovnoma o'tkazildi.

So'rovnomada xalq ta'limi tizimida faoliyat yurituvchi psixologlar, milliy gvardiya xodimlari, maxalla xotin qizlar faollarining 272 nafari ishtirok etdilar.

IPS ikki qisimdan iborat bo'lib, birinchi qisimda demografik, shaxsiy va ijtimoiy mavqeiga oid savollar va ikkinchi asosiy qismda shaxsning tashqi ko'rinish va analog signallari bo'lgan tana harakatlari va emotsiyalarning namoyon bo'lishiga oid belgilari asosida shaxs psixotipini aniqlashga oid savollar taqdim etildi.

Dastlab respondentlarning yashash xudidiga ko'ra anketa savollari tahlil etildi [2, B.45].

Anketaning birinchi savoli bo‘lgan “Siz muloqotda bo‘ladigan insonlarni bir qarashda aniqlay olasizmi?” degan savoliga berilgan javoblar 1-jadvalda berilgan.

### 1-jadval

**“Siz muloqotda bo‘ladigan insonlarni bir qarashda aniqlay olasizmi?” degan savolga berilgan javoblar foiz hisobida**

<b>Yashash xududi</b>	<b>Umumiy sinaluvchilar</b>			<b>Erkak sinaluvchilar</b>			<b>Ayol sinaluvchilar</b>		
	Ha	Yo‘q	Ba’zan	ha	yo‘q	ba’zan	Ha	yo‘q	Ba’zan
Shahar	45,7	11,4	42,9	44,4	22,2	33,3	46,2	7,7	46,1
Qishloq	43,6	10,9	45,4	32,1	10,7	57,1	55,5	11,1	33,3
<b>Umumiy</b>	<b>44,4</b>	<b>11,1</b>	<b>44,4</b>	<b>35,1</b>	<b>13,5</b>	<b>51,4</b>	<b>50,9</b>	<b>9,4</b>	<b>39,6</b>

Ushbu savolga umumiy tarzda sinaluvchilarning 44,4% muloqotda bo‘ladigan insonlarni bir qarashda aniqlash mumkin desa, 44,4% sinaluvchi ba’zan suhbatdoshni bir qarashda aniqlash mumkin deb javob bergenlar. Bu savolga sinaluvchilar fikrlari teng ikki qutubga ajraldi.

Erkak sinaluvchilar ayol sinaluvchilarga nisbatan muloqotda bo‘ladigan insonlarni bir qarashda aniqlashga qiynalishlarini ma’lum qilganlar, ya’ni ayol sinaluvchilardan 11,8 % dan ko‘proq ikkilanganligi ma’lum bo‘ldi. Ammo shaharda istiqomat qiluvchi erkaklar qishloqda istiqomat qiluvchi erkaklarga nisbatan suhbatdoshni bir qarashda aniqlash mumkinligiga ishonch bildirib, qishloq erkaklariga nisbatan bunday ishonch shahar erkaklarida 12,3%ga ko‘p ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Ayol sinaluvchilarda esa, shaharda istiqomat qiluvchi ayollarga nisbatan 9,3 % ko‘proq qishloq ayollarini muloqot mobaynida suhbatdoshni bir qarashda aniqlash mumkinligini belgilab, ular shaharlik ayoyllarga nisbatan insonlarni bir qarashda aniqlash mumkinliga ishonch bildirdilar.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, yashash xududi bo‘yicha jinsiy differensiyaga oid shahar erkaklari suhbatdoshni qishloq erkaklariga nisbatan ko‘proq bir qarashda aniqlay olishi va aksincha shahar ayollarini qishloq ayollariga nisbatan kamroq bir ko‘rishda suhbatdoshni aniqlay oladilar.

Anketaning ikkinchi savoli “Sizningcha bir qarashda insonning asl maqsad mudoalarini bilish, fahmlash mumkinmi?” degan savolga sinaluvchilarning bergen javoblari 2-jadvalda berilgan.

### 2-jadval

**“Sizningcha bir qarashda insonning asl maqsad mudoalarini bilish, fahmlash mumkinmi?” degan savolga berilgan javoblar foiz hisobida**

<b>Kasblar</b>	<b>Yashash xududi</b>						<b>Umumiy</b>		
	<b>Shahar</b>			<b>Qishloq</b>					
	Ha	Yo‘q	Ba’zan	Ha	Yo‘q	Ba’zan	Ha	Yo‘q	Ba’zan
Psixologlar	60	13,3	26,7	22,2	22,2	55,6	<b>45,8</b>	<b>16,7</b>	<b>37,5</b>
Milliy gvardiya	60	40	0	25	37,5	37,5	<b>31</b>	<b>37,9</b>	<b>31</b>
Xotin-qizlar faollari	46,7	0	53,3	45,5	31,8	22,7	<b>45,9</b>	<b>18,9</b>	<b>35,1</b>
<b>Jami</b>	<b>54,2</b>	<b>11,4</b>	<b>34,3</b>	<b>32,7</b>	<b>32,7</b>	<b>34,5</b>	<b>41,1</b>	<b>24,4</b>	<b>34,4</b>

Ushbu savolga sinaluvchilarning 41,1%i bir qarashda insonning asl maqsadini bilish mumkin degan javobni belgilaganlar, lekin bir qarashda nsonni aniqlash mumkin degan javoblarga nisbatan 3,3% kam javoblar qayd etilgan.

Insonni bilish bilan uning maqsadlarini anglash o‘rtasida tafovut mavjudligi sinaluvchilar bergen javoblarda ko‘rish mumkin. Suhbatdosh maqsadini bilish mumkin emas degan respondentlar 24,4%ni tashkil etdi. Demak, insonni asl maqsadini anglash, tashqi ko‘rinishiga ko‘ra aniqlashga nisbatan bir muncha mushkul ekan degan xulosa berish mumkin. Chunki, vizual baholashda fiziognomik etalonlar stereotiplarni faollashtirib, shu bilan birgalikda tashqi shablonlar (moda, kiyinish uslubi, kosmetika, aksesuarlar va h.z.) ushbu jarayonda xatoliklarni keltirib chiqaradi. Suhbatdoshning asl maqsadi esa anglanmagan tarzda yashirin bo‘lib qoladi.

Psixolog va xotin-qizlar faollari bergen javoblar milliy gvardiya xodimlari bergen javoblardan farq qilgan xolda anketada qatnashgan psixolog va xotin – qizlar faolllarining 45,8%i suhbatdosh maqsadini anglash mumkin deb biladilar, bu ularning amaliy bilim va tajribalari milliy gvardiya xodimlarning tajribalaridan yuqori ekanligini bildiradi.

Shuningdek, shaharliklar qishloqda yashovchilarga nisbatan insonning asl maqsadini bir ko‘rishda anglash mumkin deb hisoblaydilar.

### 3-jadval

**“Odatda suhbatdosh to‘g‘risida aniqroq dastlabki taassurot olish, uning shaxsini baholash uchun qancha vaqt sarflanadi?” degan savolga berilgan javoblar**

Kasblar	Yashash xududi							Umumiy		
	Shahar			Qishloq						
Javoblar	1-5 daqiqa	10-30 daqiqa	Ko‘p vaqt	1-5 daqiqa	10-30 daqiqa	Ko‘p vaqt	1-5 daqiqa	10-30 daqiqa	Ko‘p vaqt	
Psixologlar	33,3	60	6,7	11,1	44,4	44,4	25	54,2	20,8	
Milliy gvardiya	40	40	20	25	58,3	16,7	27,5	55,2	17,2	
Xotin-qizlar faollari	33,3	60	6,7	31,8	45,4	22,7	32,4	51,4	16,2	
<b>Jami</b>	<b>34,3</b>	<b>57,1</b>	<b>8,6</b>	<b>25,5</b>	<b>50,9</b>	<b>23,6</b>	<b>28,9</b>	<b>53,3</b>	<b>17,8</b>	

Psixologlar birinchi taassurot yaratish uchun juda oz vaqt kerakligini isbotlganlar: 4 soniyadan 4 daqiqagacha. Biror kishi haqida fikr yuritish uchun u bilan ko‘p vaqt o‘tkazish shart emas. Birinchi taassurot inson miyasi tomonidan yangi tanishuv haqidagi ma’lumotlarni idrok etish va ongsiz ravishda qayta ishlash orqali paydo bo‘ladi. Suhbatdosh haqidagi ma’lumotlar eng qisqa vaqt ichida o‘qiladi: suhbatdoshning noverbal signallari (tana tili, tashqi ko‘rinish, yuz ifodalari, artikulyatsiya)ga e’tibor beriladi [5, B.78-80].

So‘zlar, jumlalar va ma’nolar tanishishning dastlabki daqiqalarida ikkinchi darajali rol o‘ynaydi, chunki inson miyasi so‘zni (ismni) emas, balki tasvirni (yuzni) osonroq va tezroq taniydi. Aytilganlarning 20% dan ko‘pi esda qolmaydi va ko‘rganlarning kamida 70% esda qoladi. Shuning uchun, verbal signallar noverbal signallarga nisbatan kam esda olib qolinadi [3, B.78-80].

Garvard professorlari Nalili Ambadi va Robert Rozentalning empirik tadqiqotlari tanishishda nutqning semantik bo‘limgan mazmuni katta rol o‘ynashini tasdiqlagan [4, B.258].

Sinaluvchilarning fikriga ko‘ra dastlabki taassurot olish va suhbatdoshni baholash uchun 10 daqiqadan 30 daqiqagacha vaqt sarflanadi degan javob eng ko‘p qayd etilgan javob bo‘lib, u sinaluvchilarning 53,3%ida qayd etilgan. Jahon psixologlari tomonidan rasman qayd etilgan shaxsni baholashga surf etiladigan standart vaqtga faqat sinaluvchilarning 28,9 % i to‘g‘ri javob bergen. Jumladan, psixolog sinaluvchilar ham to‘g‘ri javob variantini boshqa kasb egalariga nisbatan kam belgilab bergen. Xotin-qizlar faollari doimiy amaliy faoliyat bilan shug‘ullanganli sabab, ularning javoblarida psixologlarga nisbatan 7,4% ko‘p to‘g‘ri javob qayd etildi.

Tadqiqot davomida qo‘lga kiritilgan natijalar shuni ko‘rsatadaiki, turli kasb egalari kasbiy, demografik va jinsiy xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda, o‘zga shaxsni uning yuborayotgan semiotik belgilarini turlicha talqin qilishlari ma’lum bo‘ldi. Insonni inson tomonidan idrok qilinishida uning oldindan shakllangan shaxsnинг biror narsani fikriy baholashga mo‘jallangan xulq-atvor stereotiplari va kasbiy ustakovkalari asosida baholashlari dalillandi.

Yashash xududiga ko‘ra jinsiy differensiyaga oid shahar erkaklari suhbatdoshni qishloq erkaklariga nisbatan ko‘proq bir qarashda aniqlay olishi va aksincha shahar ayollarini qishloq ayollariga nisbatan kamroq bir ko‘rishda suhbatdoshni aniqlay oladilar. Suhbatdoshni dastlabki baholashning milliy xususiyati aniqlandi, unga ko‘ra dastlabki baholash 10 daqiqa minimum va 30 daqiqa maksimum sarf etilishi aniqlandi. Demak, bo‘lg‘usida o‘zbek tana tili psixologiyasi va uni kodlashtirishning milliy modelini yaratish imkonini mavjudligini ta’kidlash joyiz.

**IQTIBOSLAR/CHOCKI/REFERENCES**

1. Sadikovich S. F., Jahongir T. DETERMINING THE MENTAL STATE OF THE ATHLETE USING PSYCHOLOGICAL //American Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2022. – Т. 5. – С. 116-121.
2. Sadikovich, S. F. (2023). Originality Definition of Visual Diagnostic Methods of Accentuating the Character of a Person. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 2(2), 17–19. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/jiphr/article/view/557>
3. Soliev F. S., Sodiqova F. F. Psychological health: symptoms of disorders in perception and perception processes //Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. – 2020. – С. 78-80.
4. Soliev, F. (2022). Identification of hidden opportunities inherent in the personality psychotype in interpersonal relationships. In Человеческий капитал как фактор социальной безопасности (pp. 258-266).
5. Soliev, F. S., & Sodiqova, F. F. (2020). Psychological health: symptoms of disorders in perception and perception processes. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 78-80).
6. Soliev, F. S., and F. F. Sodiqova. "Psychological health: symptoms of disorders in perception and perception processes." Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. 2020.
7. Зайнобидинов Ж., Солиев Ф. РОЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ИНТЕРВЕНЦИЙ В УКРЕПЛЕНИИ ПСИХИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ УЧАЩИХСЯ //ББК Ю953. – 2020. – С. 269.
8. Зайнобидинов, Ж., & Солиев, Ф. (2020). РОЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ИНТЕРВЕНЦИЙ В УКРЕПЛЕНИИ ПСИХИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ УЧАЩИХСЯ. ББК Ю953, 269.
9. Зайнобидинов, Ж., and Ф. Солиев. "РОЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ИНТЕРВЕНЦИЙ В УКРЕПЛЕНИИ ПСИХИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ УЧАЩИХСЯ." ББК Ю953 (2020): 269.
10. Солиев Ф. С. и др. Изучение зависимости индивидуально-психологических свойств от конституционального строения личности //Психологическое благополучие современного человека. – 2019. – С. 255-259.
11. Солиев, Ф. (2020). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF USING THE ACHIEVEMENTS OF SOCIAL PROFILE IN LEARNING A FOREIGN LANGUAGE. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 265-268).
12. Солиев, Ф. С., & Содикова, Ф. Ф. (2020). ПРИЗНАКИ НАРУШЕНИЯ ОЩУЩЕНИЙ И ВОСПРИЯТИЯ. ББК Ю953, 78.
13. Солиев, Ф. С., & Содикова, Ф. Ф. (2022). ПРОЕКТИВ ВА ВИЗУАЛ МЕТОДИКАЛАР ЁРДАМИДА СПОРТЧИ ПСИХОТИПИ ВА РУҲИЙ ХОЛАТИНИ АНИҚЛАШ.
14. Солиев, Фарходжон Содикович, and Фариза Фарҳоджоновна Содикова. "ПРОЕКТИВ ВА ВИЗУАЛ МЕТОДИКАЛАР ЁРДАМИДА СПОРТЧИ ПСИХОТИПИ ВА РУҲИЙ ХОЛАТИНИ АНИҚЛАШ." (2022): 22-33.
15. Хмелевская Е., Солиев Ф. С. СПОСОБЫ ИЗУЧЕНИЯ ДОМИНАНТНОСТИ ЛИЧНОСТИ //Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. – 2020. – С. 180-182.

# ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 6-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ  
ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-6

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES  
VOLUME-I, ISSUE-6

«Педагогик ва психологияк тадқиқотлар»  
электрон журнали 2022 йил 22 декабрь  
куни № 054834-сонли гувоҳнома билан  
оммавий ахборот воситаси сифатида  
давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти  
чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент  
шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ,  
Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

Веб-сайт: [www.imfaktor.uz](http://www.imfaktor.uz)